BADIIY ASARNING SAHNALASHTIRILISHIDA KUZATILADIGAN LINGVOTRANSFORMATSION JARAYONLAR TADQIQI

Ma’rufjon Yo‘ldoshev
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, Xalqaro hamkorlik, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, filologiya fanlari doktori,
Oybek Tohirov
O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287449

ANNOTATSIYA

Transformatsiologiya – keng va tor ma’noda tushunish mumkin bo‘lgan, zamonaviy fan tarmoqlarida faol qo‘llanilayotgan termiin hisoblanadi. Bu termin dastlab ximiya fanida paydo bo‘ldi va moddalarning tarkibiy o‘zgarishga uchrash jarayonlarini tadqiq etishda qo‘llanildi. Keyin boshqa fan tarmoqlarida ham tub va qisman o‘zgarishlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish maqsadida qo‘llana boshlandi. Tilshunoslikda ilk marta Qirim davlat pedagogika instituti professori Migirin Viktor Nikolayevich o‘zining “Еволюwия придаточного предложения и разные виды трансформatsiи главного и придаточного предложений в русском языке” nomli dissertatsion tadqiqotida qo‘llagan. Maqolada Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” dostonining sahnalashtirilishida frazeologik birliklarning lingvotransformatsiyaga uchrash jarayoni haqida so‘z yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Transformatsiologiya, lingvotransformatsion jarayonlar, sahna asari, Usmon Azim.

АННОТАЦИЯ

Трансформациология — термин, который можно понимать как в широком, так и в узком смысле, и который активно используется в современных научных областях. Этот термин впервые появился в химии и использовался для изучения процессов, посредством которых вещества претерпевают структурные изменения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Трансформациология, процессы лингвистических трансформаций, сценическое творчество, Усман Азим.

Позднее его стали использовать в других областях науки для изучения причин фундаментальных и частичных изменений. Впервые в языкознании его использовал профессор Крымского государственного педагогического института Виктор Николаевич Мигирин в своем диссертационном исследовании «Эволюция придаточного предложения и различные типы трансформации главного и придаточного предложений в русском языке». В статье рассматривается процесс языковой трансформatsii фразеологических единиц в инсценировке эпической поэмы Усмана Азима «В краю рассвета».

ABSTRACT

Transformatiology is a term that can be understood in a broad and narrow sense and is actively used in modern scientific fields. This term was first used in chemistry and was used to study the processes of structural changes in substances. Later, it began to be used in other scientific fields to study the causes of radical and partial changes. For the first time in linguistics, Professor Migirin Viktor Nikolaevich of the Crimean State Pedagogical Institute used it in his dissertation research entitled “Evolution of the subordinate clause and various types of transformation of the main and subordinate clauses in the Russian language”. The article discusses the process of linguistic transformation of phraseological units in the staging of Usman Azim's epic poem "In the Lands of Dawn".

KEY WORDS

Transformatiology, linguistic transformation processes, stage work, Usman Azim.

KIRISH

Transformatsiologiya – keng va tor ma’noda tushunish mumkin bo‘lgan, zamonaviy fan tarmoqlarida faol qo‘llanilayotgan termin hisoblanadi. Bu termin dastlab ximiya fanida paydo bo‘ldi va moddalarning tarkibiy o‘zgarishga uchrash jarayonlarini tadqiq etishda qo‘llanildi. Keyin boshqa fan tarmoqlarida ham tub va qisman o‘zgarishlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish

maqsadida qo‘llana boshlandi. Transformatsiologiya jamiyatda sodir bo‘ladigan chuqur, tizimli o‘zgarishlar jarayonini o‘rganadigan ilmiy soha sifatida ham ham keng imkoniyatlarga ega tadqiqot sohasi hisoblanadi. Bu fan, ayniqsa, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlarning bir holatdan boshqasiga o‘tishi, ya’ni transformatsiyasi qanday amalga oshishini o‘rganishga moslashganligi bilan ko‘plab fan tarmoqlari tadqiqotchilari e’tiboriga tushdi. Transformatsiologiya sohasida jamiyatdagi muayyan tuzum bilan bog‘liq o‘zgarishlar, formatsiyalarning rivojlanishi va inqirozi, iqtisodiy islohotlarning dinamikasi, sotsial qatlamlardagi turli o‘zgarishlar, davlat boshqaruvidagi islohotlar tahlilga tortiladi. Yaqin yillarga qadar transformatsiologiya keng tatbiq qilingan quyidagi sohalar tilga olinar edi: siyosiy transformatsiologiya, iqtisodiy transformatsiologiya, ijtimoiy transformatsiologiya, madaniy transformatsiologiya. So‘nggi davr rus tilshunosligida transformatsiologiya metod va tamoyillarining moslashuvchanligi inobatga olingan holda uni lingvistika sohasiga tatbiq qilish ishlari ham keng avj oldi va lingvotransformatsiologiya sohasi jadal rivojlana boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLGIYA

Tilshunoslikda ilk marta Qirim davlat pedagogika instituti professori Migirin Viktor Nikolaevich o‘zining “Еволюция придаточного предложения и разные виды трансформации главного и придаточного предложений в русском языке” nomli dissertatsion tadqiqotida qo‘llagan. So‘zlarning nutq jarayonida turli o‘zgarishlarga uchrashi N.I.Grech, A.X.Vostokov, F.I.Buslayev, G.P.Pavskiy, A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatov va boshqalar tomonidan u yoki bu darajada o‘rganganlar. Masalan, A.M.Peshkovskiy so‘zning nutqqa ko‘chishida tovush o‘zgarishiga uchrashini ham bu hodisa tarkibida o‘rgangan. Shuningdek, semantik o‘zgarishlar, ma’no qirrasidagi o‘zgarishlar va sekin-asta turkumlik belgilaridagi transformatsiyalarni ko‘rsatib o‘tgan. [Peshkovskiy, 1938.]

A.A.Shaxmatov esa nutq jarayonida gapning sintaktik strukturasidagi o‘zgarishlarga e’tiborni qaratadi. Shuningdek, olim *substantivatsiya, adyektivatsiya, verbalizatsiya, pronominalizatsiya, adverbializatsiya, konyunksionalizatsiya* kabi hodisalarni mazkur termin asosida tushuntiradi. [Shaxmatov, 1951. s.37] V.V. Vinogradov ayni hodisani “grammatik omonimiya” atamasi asosida izohlaydi.

Rus tilshunosligida *perexodnost, diaxronnaya transformatsiya, transpozitsiya, konversiya* kabi atamalar ham borki, har birining qo‘llanish

doirasi o‘ziga xos. Rus va jahon tilshunosligida yuqorida qayd etilgan olimlardan tashqari quyidagi olimlar ham mazkur mavzuga munosabat bildirganlar: 1. O.A.Gnatyuk[1]. 2. Y.N.Vlasova[2]. 3. T.S.Sorokina[3]. 4. A.V.Podkoritova[4]. Y.A.Yakovleva[5] 5. Y.D.Apresyan[6] 6. N.A.Chomsky[7]. 7. M.V.Martinez[8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lum bir matnning nutqqa ko‘chishi bir necha maqsadni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, badiiy matn asosida suratga olingan badiiy film yoki sahna asarida juda jiddiy transformatsion jarayonlar kuzatiladi.

Biz maqolada transformatsiologiya, transformatsion jarayonlar, nutqiy o‘zgarishlar va ular ichida leksik-semantik transformatsiya, paremiologik transformatsiya, matnning struktural transformatsiyasi, umumiy o‘zgarishlar, xususiy o‘zgarishlar kabi terminlardan foydalanib Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” dostonining sahnalashtirilishida namoyon bo‘lgan ayrim lisoniy va nutqiy o‘zgarish maqsadi haqida fikr yuritamiz.

M.Yo‘ldoshev o‘zining “Cho‘lponning badiiy til mahorati” mavzusi bo‘yicha yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasida matndagi “**notob**” so‘zining videofilmda “**betob**”ga o‘zgarishi sabablari haqida ma’lumot berib o‘tgan: “Romanda tasvirlanishicha, Akbarali mingboshining kenja xotini Sultonxon Zebining qo‘shiqlarini tinglagach, bu ajoyib ovoz sohibasini xonadoniga taklif etadi. Biroq bu taklifi bilan u o‘z boshiga ne-ne g‘avg‘olar sotib olayotganini avval bilmaydi. Mingboshi uchiga chiqqan xotinboz, u Zebining ovozini eshitsa, bu go‘zal qizga sovchi qo‘yishi mumkinligini Sultonxon keyin anglab qoladi. Endi bundan qutulishning yo‘lini topish kerak. Sultonxon yo‘l izlab, xonadonning yugurdagi Umrinisabibiga maslahat soladi: Kelinchak (Sultonxon) Umrinisabibining ko‘zlariga bir oz tikilib turgach: - *Shu tobda*

---

[1] Гнатюк О.А. К вопросу о разграничении понятий: «синонимия», «вариативность», «параллелизм» (теоретический обзор) // Филологический аспект: международный научно-практический журнал. Нижний Новгород: Научно-издательский центр «Открытое знание», 2024. №03 (107). С. 46–53. Режим доступа: https://scipress.ru/upload/philology/fa032024-1.pdf (кўрилди 18.01.2025).

[2] Власова Ю.Н. Синонимия синтаксических конструкций в современном английском языке / Ю.Н. Власова. Ростов-на-Дону: Изд-во Рост. ун-та, 1981. 159 с.

[3] Сорокина Т.С. Функционально-когнитивные основания теории грамматической синонимии в английском языке: Дисс. док. филол. наук. М.: 1981. 186с.

[4] Подкорытова А.В., Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализации синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежн. Вест. ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

[5] Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализации синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежный вестник ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

[6] Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики (краткий очерк) / Ю.Д. Апресян. М.: Просвещение, 1966. 305с.

[7] Chomsky, N.A. Transformational Approach to Syntax Transformational approach to syntax / N.A. Chomsky. –Texas, –1958. – pp: 124–158.

[8] Montserrat Martínez Vázquez M. Complementos predicativos en inglés y en español/ Revista Alicantina de Estudios Ingleses, 1990. n. 3, pp. 89–96.

onam ***notob*** *bo‘lib chaqirtirsa, xafa bo‘lmas edim! – dedi* (41). Ushbu jumladagi holat ifodasida **notob** so‘zining tanlanishi adibning so‘z hassosiyatidan dalolat beradi. Bu so‘zning o‘rniga **betob** yoki **kasal** so‘zini qo‘llash mumkinmidi? Albatta, mumkin edi. Har uchala so‘zda ifodalangan denotat bir xil, ya’ni ularning asosiy ma’nosida jiddiy farq yo‘q. Ammo bu so‘zlar bo‘yoqdorligi, sub’ektiv munosabat ifodasi darajasi, qo‘shimcha ma’no qirralariga ko‘ra bir-birlaridan farq qiladi. Jumlada qo‘llangan **notob** so‘zi **betob** va, ayniqsa, **kasal** so‘ziga nisbatan yumshoqroq, hissiyroq, uning ma’nosida sub’ektning onaga bo‘lgan ijobiy munosabati aniq ifodalangan. Shuning uchun ham **notob** so‘zi so‘zlovchining ruhiy holatiga ham, mavqei (farzandlik) ga ham muvofiq keladi. Sultonxonning «*onamga ozor etmasmikin*» degan ma’nodagi botiniy andishasi va ayni damdagi ilojsiz bir holati bu so‘zga ko‘ra juda chiroyli va aniq ifodalangan. Taassufki, «Kecha va kunduz» romani asosida ishlangan videofilmda mazkur epizodda **betob** so‘zi ishlatilgan. Natijada yozuvchi betob so‘zini qo‘llash orqali yuzaga keltirgan *yumshoqlik*, *andishalilik* kabi nozik ma’no qirralari yo‘qolgan.”[9]

Mahkam Muhammedovning "Nigoh" (Toshkent, 2010. 21-b.) nomli risolasida Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining ekranga ko‘chirilishida yuz bergan lingvotransformatsion jarayonlarni shu tarzda izohlaydi: “Romanni o‘qib chiqsangiz, undagi birorta so‘zni olib tashlab bo‘lmaydi. Qodiriy har bir so‘zni mohirona, zargarona qilib yozgan. Har bitta so‘z purma’noga ega. Kitobda qanday berilgan bo‘lsa, shunday qilib chiqarib bersam mendan baxtli odam yo‘q. Men bu erda rejissura bunday bo‘lishi kerak deya, harakat qilmayman. Masalan, so‘zlarni aktyorlarga tushuntirishga harakat qildim. **Ammo bitta tomonini o‘zgartirdim**. Ya’ni, Qodiriy bu asarni 28 yil davomida yozgan, asardagi qahramonlardan biri Abdurahmon dindor, u 15 yil Buxoro madrasasida tahsil olgan. U shuncha yillik tahsilga ega bo‘lsa-da, "bachcha" bo‘ladi. Shu masjidda namoz o‘qib, kechalari to‘ylarga chiqib "bachchalik" qiladi. Bularni Qodiriy asarida yozgan. O‘sha paytlarda dinga qarshi siyosat shuni talab qilardi.” Demak bu asardagi lisoniy tarnsformatsiyaga etnomadaniy omil asos bo‘lgan. Ya’ni, aynan milliy-madaniy kodlar, dindor odam haqidagi tasavvurlar tufayli asarda tasvirlangan Abdurahmonning “bachcha”ligi haqidagi informatsiyalar ekranlashtirilish jarayonida atayin tushirilgan.

Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” deb nomlangan nasriy dramatik dostoni O‘zbekiston Milliy akademik teatrida sahnaga qo‘yildi.

[9] Юлдашев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романининг тили) Филол.фан.номз. ...дис. -Тошкент, 2000. -Б.23.

Asarda millatimizning uzoq o‘tmishi, mamlakat tarixi va o‘zlik, e’tiqod, ona yurt, or-nomus kabi yuksak tuyg‘ular haqida so‘z boradi. Yosh rejissyor Asqar Xolmo‘minov sahnalashtirgan mazkur asar qahramonlarini Erkin Komilov, Lola Eltoeva, Gulnora Jumanazarova, Hamza Hasanov va Saida Saidbekova kabi iste’dodli aktyorlar ijro etganlar.

Har qanday asar sahnalashtirilganda uning tilida muayyan o‘zgarishlar yuz beradi va bu g‘oyat tabiiy hol. Bunday evrilishlar tilshunoslar tomonidan lingvotransformatsion jarayonlar tushunchasi doirasida o‘rganilmoqda. Lingvotransformatsion jarayonlar deyilganda til birliklarining muayyan kontekst talablari asosida o‘zgarishi, yangidan shakllantirilishi yoki moslashtirish (adaptatsiya) jarayonlari tushuniladi. Bu jarayonda so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar fonetik, morfologik, leksik-semantik, sintaksik va pragmatik jihatdan transformatsiyaga uchraydi. Lingvotransformatsiya so‘zi *lingvistika* va *transformatsiya* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan tilshunoslik termini sanaladi. Transformatsiya deganda til birliklarining bir shakldan boshqa bir shaklga aylanishi tushuniladi. Bu jarayon quyidagi sabablarga ko‘ra ro‘y beradi: 1. Nutqni tomoshabinga tushunarli va ta’sirchan qilish uchun ham ma’lum bir asar tili kino yoki teatr tiliga moslashtiriladi. 2. Tarjima jarayonlarida muayyan bir tildagi asar boshqa bir tilga tarjima qilinganda tabiiy o‘laroq farqlanishlar ro‘y beradi. 3. Jamiyatdagi turli voqea-hodisalar ta’sirida ham tilda muayyan o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi.

“Tong otgan taraflarda” dramasining sahna variantida ham asar tilidagi evrilishlarni istagancha kuzatishimiz mumkin.

1. Fonetik – fonologik sathdagi transformatsiya. Bunda asar qahramonlarining ichki ruhiyatini sahnada ta’sirchan aks ettirish maqsadida ayrim so‘zlar ifodasidagi o‘zgarishlar tushuniladi. Bunday nutqlarda pafos etakchilik qiladi. Mahoratli aktyorlar so‘zning tovush qobig‘ini o‘zgartirish orqali tomoshabin e’tiborini o‘ziga jalb qilishni maqsad qiladi. Masalan, “Otajon” degan so‘z gapda undalma vazifasini bajaradi. So‘z oxiridagi unli fonemaning cho‘zib talaffuz qilinishi, ya’ni so‘zning fonetik qobig‘ining buzilishi nutqning intonatsion ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Asarda bunday holatlar ko‘p uchraydi.

2. Leksik-semantik sathdagi transformatsiya. Bunda ayrim so‘z va iboralarning sahna ijrosidagi o‘zgarishi nazarda tutiladi. Bunday o‘zgarishlarning mantig‘i, albatta, muayyan maqsad bilan amalga oshadi.

Masalan, asar matnida qo‘llanilgan “*otiladi*” so‘zi “*bo‘g‘iladi*” so‘zi bilan almashtiriladi. Asar qahramonlaridan biri Tongyorug‘ nutqidagi bu

transformatsiyaning zamirida, hodisani ijtimoiylashtirish maqsadi yotadi. Chunki "*otiladi*" fe'li *g'oz*ga nisbatan ma'qul bo'lishi mumkin. Ona nutqidagi "*bo'g'iladi*" fe'li esa jamiyat bilan bog'liq holda tushuniladi. Jamiyatda iste'dodli odamlarning yashashga haqqi yo'qligi, ularning bo'g'ilishi, ya'ni har tomonlama siquvga olinishi kabi ma'nolar real ifodalanadi. Shu ma'noda *zo'r*ning yashashga haqqi yo'qligi haqidagi mazmun *g'oz* obrazidan chiqib "*odamlar*" ma'nosi bilan kengayadi.

Yoki "*ko'z tegmasin*" iborasi tilimizda bor va nutqda faol qo'llanadi. Sahnada bu ibora "*odamlarning ko'ziga ko'rinma*" tarzida ifodalangan. "*Ko'z tegmoq*" etnografik frazeologizmining ijroda tushirilishi natijasida undagi ma'no "Odamlarning ko'ziga ko'rinmay uch" gapiga yuklanadi. Bu o'rinda "*o'q tegmasin*" komponenti keyinga – pozitsion jihatdan jumla oxiriga o'tkazilgan. Gap bo'laklarining pozitsion o'zgarishida ham o'ziga xos mantiqiylik seziladi. Ya'ni "*balandga uch*" "*odamlarning ko'ziga ko'rinma*" "*shunda o'q tegmaydi*" kabi mantiqiy izchillik to'g'ri o'ylangan.

3. Morfologik sathdagi transformatsiya. "Tong otgan taraflarda" dramasidagi "*tangri qudrati*" tarzida shakllantirilgan jumla sahnada "*tangri**ning** qudrati*" tarzida o'zgarishga uchraydi. Bu jumla qaratqichli birikma shaklida berilganligi tufayli ta'kid kuchli ifodalangan. Agar birikmadagi qaratqich kelishigi qo'shimchasi ifodalanmaganda edi urg'u ikkinchi so'zda sezilarli darajada kuchli ifodalanib, bosh so'z ta'kidi nisbatan zaiflashgan bo'lar edi. Matndagi birikmaning sahnadagi dinamikasi e'tiborga olingan holda shunday o'zgartirilgan va kelishik qo'shimchasi orqali *qudratning sohibi* alohida ta'kid olgan. Yoki "*Boysun – Qo'ng'irotga etkaz**gin***" gapi sahnada aktyor tomonidan "*Boysun-Qo'ng'irotga etkazsin*" tarzida talaffuz qilinadi. Asar matnida buyruqning ikkinchi shaxs birlik formasi qo'llanilgan bo'lsa, sahnada buyruqning uchinchi shaxs birlik formasidan foydalanilgan. Bu o'rinda mazkur gapning sahna varianti muvaffaqiyatli chiqqanini ta'kidlashimiz mumkin, "*g'oz*"ga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri buyruq berilishi mantiqan o'zini oqlamaydi. Uchinchi shaxs formasidan foydalanilganda esa "*umid*", "*yaxshi niyat*", "*tilak*" ma'nolari etakchi planga chiqadi.

Shuningdek, dramadagi "*yarador bo'lib qolmoq*" qo'shma fe'li sahna ijrosida "*yaralanib*" fe'liga almashadi. Agar sahnada "yarador bo'lib" birikmasi qo'llanilsa edi, qahramon aytmoqchi bo'lgan "nadomat, zorlanish" ma'nolari intonatsion jihatdan etarlicha anglashilmay qolgan bo'lar edi. Chunki birikmada adabiy me'yorga xoslik aniq sezilib turadi va yaxlit urg'u ikkiga bo'linadi. "Yaralanib" fe'lida esa urg'u bir so'zga tushganligi uchun

“avaylash”, “hamdardlik” va “shafqat” tuyg‘ulari tomoshabinga ham, tinglovchiga ham aniq sezilib turadi. Bundan tashqari, “yaralanib” so‘zida og‘zaki nutqqa xoslik qabariq holda ifodalanadi. Sahnada bu tarzdagi lingvotransformatsion jarayonlar tomoshabin bilan qulay muloqot o‘rnatish imkoniyatini yaratadi.

4. Sintaktik sathdagi transformatsiya. Bunda so‘z birikmasi va gap qurilishidagi muayyan badiiy-estetik maqsadga binoan amalga oshirilgan o‘zgarishlar tushuniladi. Masalan, dramada “*Men eshitayotganim yo‘q*” gapi “*Eshitmayapman*” tarzida talaffuz qilinadi. Aytish mumkinki, sahna nutqining *ixchamlik* va *kuchli ta’kid* tamoyili mazkur jumlaning transformatsiya qilinishiga asos bo‘lgan. Natijada gapni bir urg‘u bilan aytish imkoniyati, shuningdek, qo‘shimcha ma’nolarning ham ifodalanishiga zamin yaratgan. Ya’ni, ijro asnosida “befoyda narsalarni yig‘ishtir”, “boshqa narsaga urinma” kabi ma’nolar anglashiladi.

5. Matndagi ayrim birliklarning tushirlishi yoki ijroda yangi birliklarning qo‘shilishi bilan bog‘liq transformatsiyalar. Bunda asar matnida mavjud bo‘lgan ayrim birliklar tushirilgan holda ijro qilinadi. Yoki asar matnida mavjud bo‘lmagan birliklarning sahnadagi ijroda paydo bo‘lishi nazarda tutiladi. Masalan: drama matnida “sendan” olmoshi qo‘llanilmagan. Asar qahramoni Tongyorug‘ nutqida mazkur olmoshning qo‘shib talaffuz qilinishi tomoshabin markazli transformatsiya bo‘lib, persepsiya tamoyili talabiga muvofiq amalga oshiriladi. Maqsad shuki, savolning kimga yo‘naltirilishi bilan bog‘liq informatsiya “sendan” olmoshining qo‘llanilishi natijasida oshkora ifodalangan.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, matnning nutqqa, sahna yoki ekranga ko‘chishi bir necha maqsadni yuzaga chiqaradi. Ma’lum bir asar sahnalashtirilganda uning tilida turli o‘zgarishlar yuz beradi. Bunday evrilishlar tilshunoslar tomonidan lingvotransformatsion jarayonlar termini ostida o‘rganilmoqda. Lingvotransformatsion jarayonlar deyilganda til birliklarining muayyan kontekst talablari asosida o‘zgarishi, yangidan shakllantirilishi yoki moslashtirish jarayonlari tushuniladi. Bu jarayonda so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar fonetik, morfologik, leksik-semantik, sintaksik va pragmatik jihatdan transformatsiyaga uchraydi. Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” nomli dramasining sahnalashtirilishida yuz bergan lingvotransformatsion jarayonlar tilshunoslikning turli aspektlarida, xususan, lingvopragmatika, lingvopoetika, psixolingvistika, transformologiya kabi

tadqiqot sohalarining tutum va tamoyillari asosida o‘rganilishi zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Chomsky, N.A. Transformational Approach to Syntax Transformational approach to syntax / N.A. Chomsky. –Texas, –1958. – pp: 124–158.

Montserrat Martínez Vázquez M. Complementos predicativos en inglés y en español/ Revista Alicantina de Estudios Ingleses, 1990. n. 3, pp. 89–96.

Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики (краткий очерк) / Ю.Д. Апресян. М.: Просвещение, 1966. 305с.

Власова Ю.Н. Синонимия синтаксических конструкций в современном английском языке / Ю.Н. Власова. Ростов-на-Дону: Изд-во Рост. ун-та, 1981. 159 с.

Гнатюк О.А. К вопросу о разграничении понятий: «синонимия», «вариативность», «параллелизм» (теоретический обзор) // Филологический аспект: международный научно-практический журнал. Нижний Новгород: Научно-издательский центр «Открытое знание», 2024. №03 (107). С. 46–53. Режим доступа: https://scipress.ru/upload/philology/fa032024-1.pdf (кўрилди 18.01.2025).

Пешковский А.М., “Русский синтаксис в научном освещении”, 6 изд., М., 1938

Подкорытова А.В., Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализatsii синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежный вестник ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

Сорокина Т.С. Функционально-когнитивные основания теории грамматической синонимии в английском языке: Дисс. док. филол. наук. М.: 1981. 186с.

Шахматов.А.А. Из трудов А.А.Шахматова по современному русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1951. – С.37

Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализatsii синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежный вестник ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

Yuldashev M., **Yuldasheva** Z. The Problem of Text in Linguistics //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 18. – С. 100-108.

Yuldashev M. Badiiy matnda qahramonlar ruhiyati va ularning lingvopoetik xususiyatlari. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali. 2024/1. -B. 57-63.